

19«12»2022 yil.

259-12-171-OB/2022-son Гурлан туман

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan **Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi direktor **I.Raximov** bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladigan **Drujba MCHJsi** nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi **A.Do‘sniyozov** ikkinchi tomondan **Gurlan tumani Taxtako‘pir maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Namuna, Ziyokorlar va Istiklol ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash (3.98km)**ga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Ta‘riflar

1.Mazkur shartnomada tariflar kullaniladi:

“ijro hujjatlari”: - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma’sul bo‘lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi,sertifikatlar, texnik pasportlar va o‘rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo‘llanilgan materiallar, konstruktsiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to‘g‘risida dalolatnomalar, ayrim ma’suliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to‘g‘risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to‘g‘risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda ta‘mirlash normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

“ta‘mirlash maydoni”: Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob’ektning ta‘mirlash maydoni chegarasini ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi.

“vaqtinchalik ishlar”: Pudratchi tomonidan ta‘mirlash maydonida o‘rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo‘lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

“berkitilgan ishlar”:- sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

“shartnomani narxini bo‘lib chiqish”: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo‘yicha ob’ektni umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Gurlan tumani Taxtako‘pir maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Namuna, Ziyokorlar va Istiklol ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash (3.98km)** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo‘yicha ishlar qiymati.

3. Mazkur shartnoma bo‘yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining bayonnomasi (**2022 yil “14” dekabrda “207465”** son bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarini o‘z ichiga olgan holda QQS bilan joriy narxlarda **1047191748 (bir milliard qirq yetti million bir yuz to‘qson bir ming yetti yuz qirq sakkiz)** so‘mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik kayta kurib chikilishi mumkin emas, kuyidagi xollar bundan mustasno:

- ta‘mirlash qiymatini kupaytirishga yengib bulmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bulganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan uzgartirilganda;
- ob’ektning ta‘mirlashi bir yildan ortik muddatga uzgartirilganda.

5. Ta‘mirlash muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6 Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

7. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga “1” ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50%ni o‘zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- ta‘mirlash maydoniga zarur ta‘mirlash materiallar, buyumlar, konstruktsiyalar va butlovchi buyumlar, ta‘mirlash texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

- ta‘mirlash maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

- ta‘mirlash tavakkalchiligini sug‘urta qilish.

Mazkur shartnoma bo‘yicha ob’ektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda ta‘mirlash maydonini o‘ziga tegishli ta‘mirlash mashinalari, asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, ta‘mirlash materiallari, buyumlari, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish;

ta‘mirlash maydonini qo‘riqlanishini ta‘minlash;

ta‘mirlash jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta‘minlash.

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarishni o‘z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan (ta'mirlash ishlarining 50 %dan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan ta'mirlash maydonini ob'ekt ta'mirlashi va ta'mirlash tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy ta'mirlashda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 2 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddati

10. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab: keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov natijasi bo'yicha aniqlangan ta'mirlashning davom etish vaqti avans mablag'lari o'tkazilgan kundan e'tiboran **30** kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 15% miqdorida, avans o'tkazadi, bu **157078762 (bir yuz 'llik yetti million yetmish sakkiz ming yetti yuz oltmish ikki)** so'mni tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asosda amalga oshiriladi

16. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 95% gacha doirasida amalga oshiriladi.

17. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob ta'mirlash tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin yoki joriy moliya yili yakuniga qadar ishlar qiymatining 5% gacha miqdorida, amalga oshiriladi:

18. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

19. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

20. Buyurtmachi ta'mirlash maydonida o'z vakilini – Texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

21. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

22. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan ta'mirlash maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

23. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

24. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini ta'mirlashda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

25. Ta'mirlash maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

26. Buyurtmachi ta'mirlash maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va ta'mirlash axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

27. Buyurtmachi ta'mirlash maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda ta'mirlash maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

28. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalarga va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

29. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

30. Ta'mirlash maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

31. Pudratchi o'zi tomonidan ta'mirlashda qo'llaniladigan ta'mirlash materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

32. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va ta'mirlashda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

33. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning ta'mirlashda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

34. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

35. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning ta'mirlash sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasi javobgar hisoblanmaydi.

36. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va ta'mirlash qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 35 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

37. Pudratchi ta'mirlash maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, ta'mirlash davrida maydonda ta'mirlash axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

38. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, ta'mirlash texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ta'mirlashni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikirini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarini qo'riqlash

39. Pudratchi ishlar boshlanishidan ta'mirlash tugallanguncha va ta'mirlash tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul kilib olingunga qadar chetlari to'silgan ta'mirlash maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar ta'mirlash texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

40. Ta'mirlangan ob'ekt va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar ob'ekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

41. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

42. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

43. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Ta'mirlashi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish

44. Ta'mirlashi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ta'mirlashi tugallangan ob'ektning foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

45. Ob'ektning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

46. Pudratchi ta'mirlashi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

47. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar

48. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

- loyiha hujjatlari hamda ta'mirlash me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan ta'mirlash uchun qo'llaniladigan ta'mirlash materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni;

ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

49. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar ta'mirlashi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida **12** oy etib belgilanadi. Ob'ektning kafolat muddati kamida **12** oy etib belgilanadi.

50. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartarf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII-bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

51. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish ta'mirlashda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

52. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlashning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,

- pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari ta'mirlash me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

54. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ta'mirlash ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

55. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

56. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

57. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

58. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

59. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

60. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

61. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi.

62. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, ta'mirlash me'yorlari va qoidalariga, ishchi hujjatlariga muvofiq bo'lmasa u holda Buyurtmachi ta'mirlashda Davlat nazorati inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida undirish huquqiga ega.

63. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

64. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

65. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

66. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

67. Pudratchi ta'mirlash ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

68. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

69. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

70. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin ta'mirlash maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi ta'mirlash maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

71. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

72. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr**gacha amal qiladi.

73. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan **2** nusxada tuziladi.

XVII. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlari

74. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

75. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

76. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb kilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan okilona choralar kiradi.

77. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, nazorat ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarida qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

78. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

- korruptsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmashligi va korruptsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

- ulardan korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

79. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

80. Agar bir tarafga boshqa tarafning korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 4 va 5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdin oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdin to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

XVIII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari

BUYURTMACHI	PUDRATCHI
Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Drujba MCHJ
Manzili: Gurlan t Mustaqillik ko'chasi 2-uy	Manzili: Gurlan tuman Birlashgan qishlog'i
Tel/faks:365-15-40	Tel/faks: 97 791 00 22
shx/r: 401722860332087045204110003	x/r: 20208000600352587001
Bank: Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM	Bank: Hamkor bank Urganch
MFO: 00014	MFO: 00083
INN: 206944034	INN: 201852359
OKED: 70100	OKED: 42110
Moliya vazirligi yagona g'azna xisob varag'i	
x/r:23402000300100001010	
INN: 201122919	


M.O' _____
(Imzo)

I.Raximov



M.O' _____
(Imzo)

A.Do'sniyozov

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IKROM RAXIMOV AXMEDOVICH
	Imzolangan sana	19.12.2022 16:07
	Hujjat kodi	CO6011768442
	Hulosa kodi	CH3875461104

**Ob'ektda bajariladigan ta'mirlash-montaj ishlari
JADVALI**

T/r	Ishlar turi va nomi	Ishlar hajmi (km)	Qiyamati (so'm)	2022 yil uchun ta'mirlash qiymati												Ishlar turi qiymatining jami
				I - chorak			II - chorak			III - chorak			IV - chorak			
				Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Novabr	Dekabr	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	
1	Gurlan tumani Taxtakopir maxallasida ochiq byudjet partalida g'olib bo'lgan Namuna, Ziyokorlar va Istiklol ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash	3.98	104718												104718	104718

1. Mazkur jadval shartnoma (kontrakt) ning ilovasi hisoblanadi va uning ajralmas qismi deb qaraladi.
2. Kelgusi yillardagi ta'mirlash ishlari uchun ham shunday grafik tuziladi.

BUYURTMACHI:

Rahbar: _____ I.Raximov


M.O': _____

PUDRATCHI:

Rahbar: _____ A.Do'sniyozov

M.O': _____



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikni tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IKROM RAXIMOV AXMEDOVICH
	Imzolangan sana	19.12.2022 16:07
	Hujjat kodi	CO6011768442
	Hulosa kodi	CH3875461104

2-jadvali

**“Gurlan tumani Taxtakopir maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Namuna, Ziyokorlar va Istiklol ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash (3.98km)”
Ishlarni (bosqichlarga bo‘lgan holda) bo‘nak va joriy moliyalashtirishni hisobga olgan holdagi moliyalashtirish jadvali**

Moliyalashtirish sharti	Ta'mirlash yillari 2022 yil.											
	Oylar											
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
15 % bo‘nak(avans) to‘lovi												157078762
95 % bajarilgan ishlar dalolatnomalariga asosan												837753399
5 % to‘lov kafolat muddati tugaganidan so‘ng												52359587

BUYURTMACHI:

Rahbar: _____ I.Raximov


M.O‘:

PUDRATCHI:

Rahbar: _____ A.Do‘sniyozov

M.O‘:



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IKROM RAXIMOV AXMEDOVICH
	Imzolangan sana	19.12.2022 16:07
	Hujjat kodi	CO6011768442
	Hulosa kodi	CH3875461104

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

CH3875461104

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **PUDRAT ShARTNOMASI 1047 mln**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Gurlan tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 19.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Gurlan tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



M.B.SAPARBAYEV

19.12.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 207465 на приобретение ГУРЛАН ТУМАНИ ТАХТАКЎПИР МАХАЛЛАСИДА ОЧИҚ БЮДЖЕТ ПАРТАЛИДА ҒОЛИБ БЎЛГАН НАМУНА, ЗИЁКОРЛАР ВА ИСТИҚЛОЛ КЎЧАЛАРИ ИЧКИ ХЎЖАЛИК ЙЎЛЛАРИНИ ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАШ. (3.98км)

Способ проведения электронный

Дата 14.12.2022

Время рассмотрения 14.12.2022 15:13

Закупочная комиссия Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RAXIMOV IKROM AXMEDOVICH	Бошқарма бошлиғи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Секретарь комиссии	NARIMMETOV O‘TKIRBEK SHUXRATOVICH	Иқтисодчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	XASANOV ODILBEK BEKTURDIYEVICH	Техник назоратчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	SAPARBAYEV YUSUPBAY ISKANDAROVICH	Бош хисобчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	DJUMATOV RASHID ZARIFOVICH	Инфратузилма обектлари ва автотранспортдан фойдаланиш бўлими бошлиғи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	SARIBAYEV AZAMAT BALTABAYEVICH	Бош муҳандис	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.12.2022 года № лота 207465.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	ГУРЛАН ТУМАНИ ТАХТАКЎПИР МАХАЛЛАСИДА ОЧИҚ БЮДЖЕТ ПАРТАЛИДА ҒОЛИБ БЎЛГАН НАМУНА, ЗИЁКОРЛАР ВА ИСТИҚЛОЛ КЎЧАЛАРИ ИЧКИ ХЎЖАЛИК ЙЎЛЛАРИНИ ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАШ. (3.98км)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1163 546 386.00
Стартовая сумма	1163 546 386.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие

баллы:

Критерий №1 Йўл қурилиш соҳасидаги рейтинг тўғрисида маълумот (<https://reyting.mc.uz/> сайтидаги рейтинг DDD ва ундандан юкори ташкилотлари бўлиши керак)

Тип: Бинарное значение

Описание: Йўл қурилиш соҳасидаги рейтинг DDD ва ундандан юкори ташкилотлар (6 балл)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XK ARXITEKTOR QURUVCHI	6	1	6	Экспертная		
OOO DRUJBA	6	1	6	Экспертная		
YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT MChJ	6	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
OOO XIVA STANDART PLYUS	6	1	6	Экспертная		

Критерий №2 Қурилиш майдонини кўрганлик ва лойиҳани ўрганганлик тўғрисида маълумотнома Қурилиш майдонини кўздан кечириш учун танлов иштирокчисининг ишончномаси асосида шахсини тасдиқловчи ҳужжат билан келиши ва қурилиш майдонини кўрганлиги ва ўрганиб чиқилганлиги тўғрисидаги далолатномада буюртмачи вакили қатнашиши керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Қурилиш майдонини кўрганлиги ва ўрганиб чиқилганлиги. 3 балл.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XK ARXITEKTOR QURUVCHI	3	1	3	Экспертная		
OOO DRUJBA	3	1	3	Экспертная		
YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT MChJ	3	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
OOO XIVA STANDART PLYUS	3	1	3	Экспертная		

Критерий №3 Танлов иштирокчисининг молиявий аҳволи. Ҳужжатлар, қуйидаги 2-3-шакиллар тўлдирилган ва ваколатли ўрганлар томонидан тасдиқланган бўлиши керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 500 млн. сўм ва ундан кўп. 6 балл. Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги. 6 балл. Ўтган йилда 50 млн. сўм фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги. 6 балл. Иш ҳақи фонди 50 млн. сўм. 6 балл. Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп. 6 балл. Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархининг 20 %гача миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат қилувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлари мавжудлиги тўғрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади). 6 балл.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XK ARXITEKTOR QURUVCHI	36	1	36	Экспертная		
OOO DRUJBA	36	1	36	Экспертная		
YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT	36	1	6	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MChJ						
ООО XIVA STANDART PLYUS	36	1	36	Экспертная		

Критерий №4 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар ҳужжатлар ваколатли ўрганлар томонидан тасдиқланган ва диплом нусхалари бўлиши шарт.

Тип: Бинарное значение

Описание: Қўп йиллик иш тажрибасига эга олий маълумотли қурилиш мутахассислигига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 6 балл. Иш тажрибасига ва олий маълумотга, дипломга эга инженер-техник ходим мавжудлиги 2 киши тавсия этилади. (участка бошликлари ва мастерлар). 6 балл. Ишлаб-чиқариш техника бўлимида қўп йиллик иш тажрибасига эга дипломи 1 та мутахассисни мавжудлиги. 6 балл. Доимий равишда ишловчи 10 та малакавий ишчилар тавсия этилади. 6 балл. Мехнатни муҳофаза қилиш ва техник хавфсизлик ходимлари 1 киши мавжудлиги. 6 балл.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XK ARXITEKTOR QURUVCHI	30	1	30	Экспертная		
ООО DRUJBA	30	1	30	Экспертная		
YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT MChJ	30	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
ООО XIVA STANDART PLYUS	30	1	30	Экспертная		

Критерий №5 Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 16 та дан кам бўлмаган шахсий (ёки лизинг шартномаси асосида) қурилиш машина ва механизмларини мавжудлиги. Ижарадаги техникаларининг баллари 50% камайтирилади). (20 балл). Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 20 бирликдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларини мавжудлиги. (5 балл) Лойиҳани бажариш учун зарур бўладиган техника ва механизмларнинг ижара шартномаси ва давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнамалари (техпаспорт) нусхалари бўлиши шарт

Тип: Бинарное значение

Описание: АВТОМОБИЛИ-САМОСВАЛЫ ГРУ-СТЬЮ ДО 30 Т АВТОГРЕЙДЕРЫ СРЕДНЕГО ТИПА 99 (135) КВТ АВТОГУДРОНАТОРЫ 3500 Л АВТОПОГРУЗЧИКИ 5 Т БУЛЬДОЗЕРЫ (КРОМЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОГО) 79 (108) КВТ ГУДРОНАТОРЫ РУЧНЫЕ МАШИНЫ ПОЛ-НЫЕ 6000 Л МАШИНЫ ДОРОЖНЫЕ КОМБИНИРОВАННЫЕ ТРАКТОРЫ НА ГУСЕНИЧНОМ ХОДУ (КРОМЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОГО) ДО 59 (80) КВТ РЕЗЧИКИ ШВОВ ДИСКОВЫЕ РАСПРЕДЕЛИТЕЛИ КАМЕННОЙ МЕЛОЧИ УКЛАДЧИКИ АСФАЛЬТОБЕТОНА ТИПА С ШИРИНОЙ УКЛАДКИ ДО 6,5 М РЫХЛИТЕЛИ НАВЕСНЫЕ (БЕЗ ТРАКТОРА) КАТКИ САМОХОДНЫЕ ДО-НЫЕ ВИБ-НЫЕ ТИПА 8 Т КАТКИ САМОХОДНЫЕ ДО-НЫЕ ВИБ-НЫЕ ТИПА 10 Т КАТКИ САМОХОДНЫЕ ДО-НЫЕ ВИБ-НЫЕ ТИПА 13 Т

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
XK ARXITEKTOR QURUVCHI	25	1	13.75	Экспертная		
ООО DRUJBA	25	1	20.62	Экспертная		
YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT MChJ	25	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
ООО XIVA STANDART PLYUS	25	1	15.62	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ХК АРХИТЕКТОР ҚУРУВЧИ	1 163 546 386.00	1 105 369 066.00 UZS	1 105 369 066.00	00.00	1 105 369 066.00	10.12.2022 18:39:23	18.0935
ООО ДРУЈБА	1 163 546 386.00	1 047 191 748.00 UZS	1 047 191 748.00	00.00	1 047 191 748.00	13.12.2022 11:26:39	19.0987
ООО ХИВА СТАНДАРТ ПЛЮС	1 163 546 386.00	1 000 000 000.00 UZS	1 000 000 000.00	00.00	1 000 000 000.00	13.12.2022 21:40:39	20

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
YANGIBOZORMAXSUSUVPU DRAT MChJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
ХК АРХИТЕКТОР ҚУРУВЧИ	71	18.0935	89.0935
ООО ДРУЈБА	76.496	19.0987	95.5947
ООО ХИВА СТАНДАРТ ПЛЮС	72.496	20	92.496

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 207465 от 14.12.2022 года на приобретение ГУРЛАН ТУМАНИ ТАХТАҚУП ИР МАХАЛЛАСИДА ОЧИҚ БЮДЖЕТ ПАРТАЛИДА ҒОЛИБ БЎЛГАН НАМУНА, ЗИЁКОРЛАР ВА ИСТИҚЛОЛ КЎЧАЛАРИ ИЧКИ ХЎЖАЛИК ЙЎЛЛАРИНИ ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАШ. (3.98км) определила победителем:

ООО ДРУЈБА
201852359

и резервный исполнитель: ООО ХИВА СТАНДАРТ ПЛЮС (302512018)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	RAXIMOV IKROM AXMEDOVICH	Согласен	
Член комиссии	XASANOV ODILBEK BEKTURDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SAPARBAYEV YUSUPBAY ISKANDAROVICH	Согласен	
Член комиссии	DJUMATOV RASHID ZARIFOVICH	Согласен	
Член комиссии	SARIBAYEV AZAMAT BALTABAYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП